

ZAMONAVIY OZIQLANTIRISH NATIJASIDA YOSH QORAKO'L QO'ZILAR MAHSULDORLIGINING SAMARADORLIGI

Dilmurod Shonazarov

(PhD) mustaqil tadqiqotchi

Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17231067>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy oziqlantirish hisobidan yosh qorako'l qo'zilar mahsuldorligining iqtisodiy samaradorlik tahlil ko'rsatkichlarining yakuniy natijalari keltirilgan.

Annotasion; This article presents the final results of the economic efficiency analysis of the productivity of young black lambs due to modern feeding.

Kalitso'zlari: oziqa miqdori, oziqlantirish soni, me'yor, o'lchov birligi, oziqa assortimenti, ratsion, daromad, sof foyda, rentabellik darajasi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda, O'zbekiston aholisining yil sayin ko'payishi natijasida moddiy ehtiyojlarni qondirilishi inobatga olinib, qorako'lchilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini ko'tarish va undan olinadigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish talab etilmoqda. Shu sababali qorako'l qo'ylari jun mahsuldorligining shakllanishini hamda jun ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida biologik omillarini o'rgaish, qorako'lchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jun hayvonlar organizmidagi oqsillar almashinuvida muhim mahsulot bo'lib, tashqi muhitning turli ta'siriga chidamli ustki himoya vositasi hisoblanadi. Junning miqdori va sifatiga genetik omillar bilan bir qatorda hayvonlarni oziqlantirish va saqlash sharoitlarining ta'siri amaliyotda kuzatilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Yosh qorako'l qo'zilarni xo'jalik yuritishning yangi sharoitida zamonaviy oziqlantirish samaradorligini yaxshilash natijasida erishilgan go'sht va jun mahsuldorligining iqtisodiy rentabellik darajasini hisobga olishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti. Dissertatsiya tadqiqotlarining iqtisodiy rentabellik borasidagi tahlil natijalari Qashqadaryo viloyati Qorako'lchilik ilmiy naslchilik tajriba stansiyasi MCHJ mas'ul xodimlari ishtirokida amalga oshirilgan.

Ilmiy tadqiqot uslublari. Qo'ylarning go'sht mahsuldorligi (A.A.Veniaminov) usuli bo'yicha, jun mahsuldorligi umum qabul qilingan zootexnikaviy tartibda qirqib olingan qo'zi junini mexanik tarozida o'lchash orqali shuningdek, biometrik tahlil natijalari matematik hisoblash (N.A. Ploxinskiy) usulida amalga oshirilgan.

Bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalari. 1-tajriba guruhiga me'yordagi ozaqalar ketma ketligi sinov muddati tarzida uch kunlik moslashuvchanlik jarayonidan to'laqonli o'tganligi sababli oziqa istemoli va hazmlanishi qoniqarli darajada o'zlashtirilgan. Shunga muvofiq tarzda tajriba guruhi qo'zilari 6 oylik yosh davrigacha yaylov qo'yxona tarzida saqlanib qo'shimcha mexanik tartibda oziqlantirilganda quyidagi miqdordagi oziqalarni o'zlashtirganligi aniqlangan.

1-jadval

Tajriba guruhidagi yosh qo'zilari uchun oziqa sarfi ko'rsatkichi, 1 bosh hisobida, kg, so'm

T/r	Ozuqalar nomi	Ozuqalar miqdori kg	Ozuqa narxi so'm	Xarajat ming so'm	Ozuqalar nomi	Ozuqalar Miqdori kg	Ozuqa narxi so'm	Xarajat ming so'm
-----	------------------	---------------------------	------------------------	-------------------------	------------------	---------------------------	------------------------	-------------------------

1-tajriba guruhi					2-tajriba guruhi			
1	Soya doni	30	15000	450,0	Qo'y suti	30	10000	300,0
2	Maysali arpa	80	2000	160,0	Maysali arpa	115,5	2000	231,0
3	Omuxta yem	14	3000	42,0	Omuxta yem	25	3000	75,0
4	Beda pichani	28	2000	56,0	Beda pichani	55	2000	110,0
5	Jami ozuqa	142	4985	708,0	Jami ozuqa	225,5	3175,1	716,0

Ushbu jadvalni quyidagi tartibda izohlash mumkin. Tajribalar yakunida birinchi guruhdagi bir bosh qo'zi uchun o'rtacha 30 kg soya doni, 80 kg maysalatilgan arpa, 14 omuxta yem va 28 kg beda pichani bilan ta'minlangan. Natijada jami 142 kg qo'shimcha oziqa mahsuloti uchun 708000 so'm atrofida mablag' sarflangan. Maysalatibyetishtirilgan arpa oziqasining 115,5 kg miqdori uchun 231 ming so'm, omuxta yemning 25 kg miqdordagi oziqa sarfi uchun 75 ming so'm, sifatli beda pichaning 55 kg miqdori uchun esa 110 ming so'm mablag' xarajat qilingan. Jami 225,5 kg oziqa sarfi uchun hammasi bo'lib 716 ming so'm mablag' sarflangan.

Tadqiqot guruhidagi qo'zilarining so'yim chiqimi ko'rsatkichlari (5oylikdavrida), n = 3

2-jadval

Ko'rsatkichlar	1-tajriba	2-tajriba	Nazorat
	X±Sx		
Tirik vazni, kg	30,66±0,87	29,00±0,57	27,33±0,52
Nimtavazni, kg	14,33±0,87	13,33±0,65	11,66±0,87
So'yim chiqimi, %	46,73	45,96	42,66
Lahmvazni, kg	10,00±0,57	9,16±0,43	8,33±0,64
Lahm miqdori, %	69,78	68,71	71,44
Suyaklarvazni, kg	2,66±0,39	2,50±0,28	2,93±0,06
Suyak miqdori, %	26,60	27,29	35,17
Paylarvazni, kg	0,23±0,09	0,33±0,05	0,50±0,04
Pay miqdori, %	2,30	3,60	6,00
Go'shtdorlikkoeffitsiyenti	3,46	3,23	2,42

Jadval ma'lumotlarini quyidagicha tahlil etamiz. Tajribalarimiz mobaynida birinchi guruhga mansub bo'lgan yosh qorako'l qo'ylar nimtasining og'irligi yuqori semizlik darajasidagi ularning so'yimdan oldingi tirik vazni 1-tajriba guruhida 30,66 kg, 2-tajriba guruhida 29,00 kg, bu ko'rsatkich nazorat guruhidagi yosh qo'ylarda 27,33kg, tirik og'irlikda ekanligi aniqlangan. 1-tajriba guruhida parvarish qilingan yosh qorako'l qo'zilarining tirik vazniga ko'ra, so'yim chiqimi 46,73 %, 2-tajriba guruhidagi qo'zilarida 45,96 %, nazorat guruhida 42,66 % ni tashkil etdi. Xuddi shuningdek, go'sht mahsuldorligiga tegishli bo'lgan boshqa ko'rsatkichlar ham tajriba va nazorat guruhlari qo'zilarida olib borilgan xususiy tadqiqotlarda so'yim chiqimiga tegishli raqamlarkeltirilgan.

Go'shtdorlik koeffitsiyenti hayvon go'shtning lahm vazni uning suyak va paylar vazn yig'indisi nisbatining foizga ko'paytmasi bo'yicha hisoblanadi. Bunga ko'ra 1-tajriba guruhdagi hayvonlarda 3,46 %, 2- guruhda 3,23 %, va nazorat guruhi hayvonlarida 2,42 % go'shtdorlik koeffitsiyenti bo'yicha natijalarga erishilgan.

Qorako'l qo'ylarida jun ma'lum darajada biologik "indikator" vazifasini o'tab ozuqa ratsioni to'yimli moddalar bilan ta'minlanmasa jun yaltiroqligining xiralashishi, jun tolasi mustahkamligi va elastikligi pasayishi kuzatilgan. O'tkazilgan tadqiqotlarimiz jarayonida tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan yosh qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorlini o'rganish borasida amalga oshirilgan jun qirqimi natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

3- jadval


Tajriba va nazorat guruhlaridagi yosh qorako'l qo'ylarning Yillik jun mahsuldorligi, kg. ($\bar{X} \pm S_x$)

Yoshi	Qirqim mavsumi	Tadqiqot guruhlari, n=15		
		1-tajriba	2-tajriba	Nazorat
7-8 oy	Kuzgi	$0,725 \pm 0,02^*$	$0,657 \pm 0,01^*$	$0,579 \pm 0,03$
12 oy	Bahorgi	$0,967 \pm 0,02^{**}$	$0,875 \pm 0,03$	$0,722 \pm 0,02^{**}$
	Yillik	$1,692 \pm 0,02$	$1,532 \pm 0,02$	$1,301 \pm 0,04$

* $P > 0,95$; ** $P > 0,999$;

Ushbu jadval tahlil etilganda tajriba va nazorat guruhlariga mansub qorako'l qo'zilarining yoshiga nisbatan jun mahsuldorligi raqamli ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilgan. Bunda 1-tajriba guruhiga mansub har bir bosh yosh qorako'l qo'yidan yillik o'rtacha 1692 g, 2-tajriba guruhidan 1532 g, nazorat guruhiga mansub qorako'l qo'ylardan 1301 gramm hisobida jun mahsuloti ishlab chiqarilgan. Jun mahsuldorligi bo'yicha kuzgi qirqimda 1-tajriba guruhi, 2-tajriba va nazorat guruhiga nisbatan mos holatda 68-146 g ga yuqoriligi kuzatilgan.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi yosh qorako'l qo'ylarning yillik jun mahsuldorligi (kg). 4-diagramma.



Jadval ma'lumotlari asosida bahorgi qirqimda 1-tajriba sinovidagi yosh qo'zilardan 967 g toza va sifatli jun mahsuloti qirqib olingan. 2- tajriba guruhidagi yosh qo'zilardan o'rta hisobda 875 gramm, nazorat guruhiga mansub suruvdagi yosh qorako'l qo'ylardan esa 722 gramm atrofida jun mahsuloti ishlab chiqarilgan. Natijalarga ko'ra yillik jun qirqim miqdori bo'yicha 1-tajriba guruhi qo'zilari 2-tajriba va nazorat guruhi qo'zilardan mos ravishda 157-391 g yuqori bo'lishi kuzatilgan.

4-jadval

Tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	Tadqiqot guruhlari yoshi (oy)		
		1-tajriba 5,0 oy	2-tajriba 5,0 oy	Nazorat 5,0 oy
1	Jami sarflangan sut, ming so'm	450	300	750
2	Gidropon oziqa, ming so'm	160	231	-----
3	Omuxta yem, ming so'm	42	75	-----
4	Beda pichani, ming so'm	56	110	-----
5	Ko'chma qo'zixona, ming so'm	36	36	-----
6	Qo'shimcha mehnat sarfi, ming so'm	100	100	100
7	Jami sarf xarajatlar so'm	844,000	852.000	850
8	Tirik vazn kg, ming so'm	30,66x 35,6	29,00 x 35,6	27,33x35,6
9	Olingan daromad so'm	1093519,5	1034314	972948
10	Erishilgan sof foyda so'm	249519,5	182314	122948
11	Rentabellik darajasi %	29,56	21,39	14,46

Iqtisodiy samaradorlikka oid ko'rsatkichlarni quyidagicha tahlil etish mumkin. Tadqiqot guruhlariga mansub 1 tajriba sinov guruhiga olingan har bir bosh yosh qorako'l qo'zilar oziqasi uchun 150 kun davomida hammasi bo'lib 450 ming so'mlik soya suti sarf etilgan. Shuningdek, gidroponika usulida tayyorlangan yashil maysa tannarxi uchun esa 160 ming so'm mablag' sarflangan.

Xuddi shunday qo'shimcha oziqlantirish davomida har bir bosh qo'zi iste'moli uchun omuxta yem sarf xarajatlariga 42 ming so'm mablag' yo'naltirilgan. Beda pichani uchun jami sarf xarajatlar 56 ming so'mga teng bo'lgan. Qo'shimcha mehnat haqqi xarajatlari uchun 100000 (yuz ming) so'm barcha xarajatlar jamlanganida hammasi bo'lib 1 bosh qo'zi uchun jami jarajatlar 844000 (sakkiz yuz qirq to'rt ming) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot yakunida bir bosh qo'zining tirik 30,66 kg teng bo'lgan. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib yosh qo'zilarning 1 kg tirik vazn uchun tannarx 35666 (o'ttiz besh ming olti yuz oltmish olti) so'm miqdorida baholangan. Demak barcha sarf xarajatlar inobatga olingan holda birinchi tajriba guruhining daromad ko'rsatkichi 1093519,5 (bir million to'qson uch ming besh yuz o'n to'qqiz yarim) so'mni tashkil etgan. Erishilgan sof foyda esa 249519,5 (ikki yuz qirq to'qqiz ming, besh yuz o'n to'qqiz yarim) so'mni tashkil etgan. Rentabellik darajasi esa 29,56 % dan iborat bo'lgan.

Xuddi shu tarzda 2-tajriba guruhi tarkibi ham bir xil oziqalantirish, saqlash va boshqa qo'shimcha mehnat haqi uchun umumiy hisoblangan holda jami sarf xarajatlar 852000 (sakkiz

yuz ellik ikki ming) so'mni, olingan daromad 1034314 (bir million o'ttiz to'rt ming uch yuz o'n to'rt) so'mga teng bo'lib erishilgan sof foyda esa 182314 (bir yuz sakson ikki ming, uch yuz o'n to'rt) so'mni tashkil etdi. 2- tajriba guruhida rentabellik darajasining ko'rsatkichi 21,39 % dan iborat bo'lgan.

Shuningdek, nazorat guruhidagi yosh qorako'l qo'zilar uchun bir boshga nisbatan jami sarf xarajatlar 850 ming so'mni tashkil etgan. Ularning har biridan jolingan daromad esa 972 ming so'm, erishilgan sof foyda 122948 so'mni, rentabellik darajasi 14,46 % ni tashkil etgan. Birinchi tajriba guruhi yosh qo'zilarining asosiy kundalik iste'mol ratsionidagi oziqasi soya suti hisobidan ikkinchi tajriba guruhida foydalanilgan kamxarj va serdaromad oziqa manbai bo'lgan gidropon yashil maysali mahsulotiga nisbatan 8,17 % ga nazorat guruhidagi tegnqurlariga ko'ra 15,10 % yuqori rentabellik darajasini namoyon etgan.

Xulosa. Tadqiqotlar yakunida yosh qorako'l qo'zilar zamonaviy qo'shimcha oziqlantirilganda tajriba guruhi hayvonlari go'sht va jun mahsuldorligi bo'yicha yuqori iqtisodiy rentabellik ko'rsatkichlariga ega bo'lishini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бобокулов Н.А., Попова В.В., Ибрагимов Ж.Х., Хайдаров К., Рафиев Б.Х., Хатамов А.Х., Кличев З.С., Рекомендации по эффективном приемам производства мяса каракулеводческих фермерских хозяйствах Узбекистана. Самарканд 2017., 23 с.
2. Yormatova D. Soya XXI asr ozuqa o'simligi. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. 2019. №4. 20-22 b.
3. Шитикова А.В., и др. Гидропоника алтернатива традиционному зелёному корму Ж. Кормопроизводства №2. 2020 г.с 15-19.
4. Плохинский Н.А. Руководства по биометрии для зоотехников. Москва-Колос. 1969. С-25.
5. Бобокулов Н.А., Попова В.В., Исмаилов М.Ш., Рафиев Б.Х., Парманова Д.М. Модель эффективной природоохранной технологии кормления и содержания каракульских овец. Самарканд 2014. С.29.
6. Oripov M. "Ozuqa bazasini rivojlantirish orqali chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi". AGROWOOL @ Agrowool 16.07.2022.